



ABU AL-HASAN ASH'ARIYNING "MAQOLOT AL-ISLOMIYYIN" ASARIDA ISLOM TARIXIDAGI OQIMLARNI BAYON QILISH USLUBI

Saminov Muhammad-Sodiq Raxmonjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini
o'rganish ICESCO" kafedrasida 2-bosqich
magistranti

mrsaminov1040@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17802486>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-noyabr 2025 yil
Ma'qullandi: 28-noyabr 2025 yil
Nashr qilindi: 30-noyabr 2025 yil

KEY WORDS

maqolot ilmi, ahli sunna, shia, xavorij, mo'tazila, firqa.

ABSTRACT

Imom Abu al-Hasan Ash'ariyning "Maqolot al-Islomiyin" asari islom niqobi ostidagi firqalar va ularning e'tiqodiy qarashlarini xolis va tizimli tarzda bayon qilgan muhim aqiydaviy-tarixiy manbadir. Asar hijriy 300-320 yillar oralig'ida yozilgan bo'lib, muallif o'zidan oldingi yozilgan maqolot mavzusidagi manbalarni kamchiliklarini to'g'rilash maqsadida bu kitobni yozishga kirishgan.

Ash'ariy unda firqalarni nomma-nom va masala asosida ikki uslubda tahlil qilgan. Eng ko'p e'tibor shia, xavorij va mo'tazila firqalariga qaratilgan bo'lib, boshqa firqalar nisbatan qisqacha bayon etilgan. Asarda ilmiy xolislik, tafsilotlarga e'tibor va ehtiyotkorlik asosiy yondashuv bo'lib, ushbu asar maqolat ilmining rivojida muhim o'rin egallaydi.

Islom tarixi davomida e'tiqodiy masalalarda yuzaga kelgan turli ixtiloflar, keyinchalik muayyan diniy oqimlar va firqalarning shakllanishiga olib kelgan. Bu firqalar faqat diniy qarashlarga emas, balki siyosiy va ijtimoiy sabablarga ham tayanib, musulmon jamoalar orasida yirik bo'linishlarni yuzaga keltirgan. Shu sababli, bu harakatlar va ularning e'tiqodiy asoslarini o'rganish islom ilmlari, xususan, kalom va aqiyda sohalarining asosiy vazifalaridan biriga aylangan.

Imom Abul Hasan al-Ash'ariy (vaf. 0324 h./935 m.) tomonidan yozilgan "Maqolat al-Islomiyin" asari islom tarixidagi eng muhim aqidaviy va tarixiy manbalardan biri bo'lib, musulmon firqalarining e'tiqodiy qarashlarini tizimli, tafsilotli va xolisona tarzda bayon etadi. Muallif bu asarni o'zidan avvalgi mualliflarning xatolarini tuzatish va mavjud firqalar haqida ishonchli ma'lumotlar berish maqsadida yozgan.

Imom Ash'ariyning bu asarda qo'llagan metodologiyasi, firqalarni taqdim etishdagi uslubi va ularning fikrlarini qanday tartibda bayon qilgani islomiy e'tiqodiy tafakkur tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyatga ega. Ayniqsa, muallifning yondashuvi – har bir firqaning fikrini xolislik bilan, tarafkashliksiz keltirishga intilishi – uning ilmiy halolligini va "maqolat" ilmidagi yetukligining yorqin ifodasidir.

Mazkur maqolada Imom Ash'ariyning "Maqolot al-Islomiyyin" asarida islom tarixidagi firqalarni qanday uslubda bayon qilgani, ularning tasnifi, fikrlarning tartibi va har bir firqaga ajratilgan sahifalar tafovuti kabi masalalar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, Ash'ariyning bu asarni yozish sabablari, boshqa manbalar bilan solishtirgan holda uning yondashuvidagi o'ziga xos jihatlar ham ko'rib chiqiladi.

Asosiy qism

"Maqolot al-islomiyyin" asari islom tarixidagi eng muhim kalom ilmi manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu asar Abu al-Hasan Ash'ariy tomonidan yaratilgan bo'lib, ahli sunna val jamoa ta'limotidan chetda bo'lgan firqalar va ularning botil qarashlari bayon qilingan. Quyida asarning yaratilish tarixi va sabablari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

Bu kitob jumhur olimlar orasida "مقالات الإسلاميين واختلاف المصلين" (Islomchilar qarashlari va namozxonlarning ixtiloflari) nomi bilan mashhur bo'lgan. Germaniyalik sharqshunos Hellmut Ritter (1892-1971) bu kitobni beshta qo'lyozma asosida tahqiq qilgan. Ularning oxirgi nusxasidan tashqari barchasida asarning nomi (Islomchilar qarashlari va namozxonlarning ixtiloflari) deb qayd etilmagan¹.

Ammo ibn Asokirdan keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra asar "مقالات المسلمين" – "Maqolotul muslimin" shakilda bo'lib, Imom Ash'ariy: "biz musulmonlarning qarashlari (مقالات المسلمين) to'g'risida, ularning barcha ixtilof va turli qarashlarini qamrab oladigan kitob yozdik" – deb aytgan².

Shuningdek, asarning nomlanishida ishlatilgan "Maqolot" so'ziga to'xtalinsa, alohida ilm sifatida qayt etilgan. Qadimgi manbalarda maqolat ilmi uchun faqat bitta ta'rif topildi. Bu ta'rifni Toshko'pruzoda (968/1561) va Siddiq Qanujiy (1307): "Bu ilm - diniy e'tiqodlarga oid botil mazhablarni aniq bayon qilishdir." – deb keltirganlar³.

Ushbu ta'rifga quyidagicha izoh berish mumkin:

1.Asarda faqatgina botil mazhablar haqida gapirilganiga qaramasdan, asarda ahli sunnaning to'g'ri e'tiqodlari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

2.Bu ilm fiqhiy masalalar emas, faqatgina e'tiqodiy masalalar va mazhablar bilan shug'ullanadi.

3.Bu ilmda o'rganiladigan firqalar soni Payg'ambar (s.a.v) hadisida zikr qilingan yetmish ikki yoki yetmish uch firqaga asoslangan. Biroq firqalar va maqolatlar haqidagi bu sonlardan ko'proq va mavzular kengroq keltiriladi.

4.Ushbu ilm islom diniga mansub bo'lgan mazhablarni to'g'ri yoki zalolatda ekanini o'rganadi. Boshqa dinlarga oid mazhablar esa, "ilmul milal" yoki "ilmul adyon" ning o'rganadigan mavzusidir. Shuningdek, klassik davr mualliflari ushbu ikki sohani birlashtirib, barchasini "maqolat" nomi ostida jamlaganlarini ham ko'rish mumkin. Abul Hasan Ash'ariy "Maqolotul islomiyyin" asarini islomga mansub firqalar haqida yozgan. Shuningdek, noislomiy firqalar haqida alohida asar ham yozgan bo'lib, u shunday deydi:

¹ Dr. Abduttavvab Muhammad Muhammad Ahmad Usmon. Manhaj al-imom Abu al-Hasan al-Ash'ariy fi dirosat al-Farq dirosat tahliliyya li-kitab "Maqolat al-islamiyya va ixtilaf al-musollin. – J:9. – S:1. – Qohira : Zaqaqiq qizlar islom va arabshunoslik fakulteti jurnali,2019. –B.417-522.

² Ibn Asokir, Abul Qosim Ali ibn Hasan. Tabyin al-kazib al-muftariy. – Bayrut: Dor al-kitab al-arobiy, 1404 h. – B.31.

³ Al-Qanujiy, Sodiq ibn Hasan. Abjad al-ulum al-vashiy al-marqum fi bayani ahval al-ulum. // Tahqiq: Abduljabbor Zakkor. – J:2. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1978-yild. – B.515.

“Biz hudusizlar va tavhidni e’tirof etuvchilarning umumiy qarashlari haqida bir kitob yozdik va unga “Jumal al-Maqolat” deb nom berdik.”Keyinchalik bu ikki sohaning har biri alohida nom bilan mustaqil ilm sifatida ajralib chiqqan⁴.

Maqolotlar ilmida mualliflarning yondashuv va uslublari ikki asosiy yo‘nalishga bo‘linadi:

Birinchisi: Avval bahsli masalalar zikr qilinadi, so‘ngra o‘sha masalani aytib chiqqan shaxslar va firqalar bayon qilinadi.

Ikkinchisi: birinchi uslubning aksi bo‘lib, avval firqalar va shaxslar, keyin esa ularning har bir masala bo‘yicha bildirgan fikr va qarashlari sanab o‘tiladi.

Shahrastoniylar bu uslublar haqida: “Maqolot ilmida asar yozgan olimlar kitoblarini ikki xil usuli tartibga solganlar: Birinchisi: ular avval bir masalani asos qilib qo‘yib, har bir masalada biror guruh yoki bir firqaning qarashlarini keltirganlar. Ikkinchisi: Ular shaxslar va biror g‘oya egalarini asos qilib, keyin esa har bir masala bo‘yicha ularning mazhablarini bayon qilganlar” – deb keltiradi⁵.

Qolaversa, ko‘plab maqolot kitoblari ikkinchi uslubga asoslanib, bunga masol tariqasida Shahrastoniylarning “al-milal van nihāl” va Bag‘dodiylarning “al-farq baynal Firaq” asarini aytish mumkin.

Imom Ash‘ariylar esa “maqolot al-islomiyin” kitobida har ikkala uslubni birlashtirgan. Kitobning birinchi qismida ikkinchi uslub asosida shaxslar va firqalar keltirilib, har birining fikrlari bayon etilgan. Ammo, asarning ikkinchi qismida esa har bir masala alohida keltirilib, har bir masalada firqalarning qarashlari sanab o‘tilgan.

Ibn Hazm ham o‘zining “al-fasl fi al-milal va al-ahvo‘i va an-nihal” asarida Imom Ash‘ariylarning uslubidan foydalangan⁶.

Kitobning yozilgan sanasini aniqlashda Hellmut Ritter (1892-1971) unda keltirilgan so‘nggi voqealar yiliga tayanib: “Kitobning yozilgan sanasiga kelsak, unda aytilgan so‘nggi voqea Dakkada o‘ldirilgan Qarmatiylarning chiqishi bo‘lib, bu voqea hijriy 291-yilda sodir bo‘lgan. Demak, bu kitob shu sanadan keyin yozilgan.” – deb yozadi⁷.

“Al-Ibona” asarining muhaqqiqlaridan biri Doktor Favqiya Husayn tahqiqida Imom Ash‘ariylar asarlarini xronologik tartibda quyidagicha sanab o‘tagan:

1. “Al-ibona an usul ad-diyana” (Din asoslari bayoni) [300-320/915-935] yillar oralig‘ida yozilgan bo‘lishi tahmin qilinadi;

2. “Al-Luma‘ fi ar-rodd ala ahl az-Zayg‘ va al-bida” (adashgan va bid‘atchilarga raddiya berishdagi jilolar) [320 h./ 935 m.] yildan oldin;

1. “Maqolot al-islomiyin” (Islomchilar qarashlari) [320 h./935 m.] yildan oldin;

2. “Tafsir al-Qur‘on” (Qur‘on tafsiri) [320 h./935 m.] yildan oldin;

⁴ Dr. Abduttavvab Muhammad Muhammad Ahmad Usmon. Manhaj al-imom Abu al-Hasan al-Ash‘ariylar fi dirosat al-Farq dirosat tahliyligi li-kitab “Maqolat al-islamiyya va ixtilaf al-musollin. – J:9. – Qohira : Majalla banat az-Zaqaziqlar li-kulliyat ad-diroso al-islamiyya va al-arabiyya, 2019. –B.432-434.

⁵ Shahrastoniylar, Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abu Bakr Ahmad. Al-Milal va an-nihal. // Tahqiq: Muhammad Sayyid Kayloniy. – J:1. – Bayrut: Dor al-ma‘rifa, 1404 h. – B.14.

⁶ Dr. Abduttavvab Muhammad Muhammad Ahmad Usmon. Manhaj al-imom Abu al-Hasan al-Ash‘ariylar fi dirosat al-Farq dirosat tahliyligi li-kitab “Maqolat al-islamiyya va ixtilaf al-musollin. – J:9. – Qohira : Majalla banat az-Zaqaziqlar li-kulliyat ad-diroso al-islamiyya va al-arabiyya, 2019. –B.439.

⁷ Ash‘ariylar, Abul Hasan. Maqolat al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. //Tahqiq: Hellmut Ritter. – Vaysbaden: Frater Steiner, uchinchi nashr, 1980. – Muqaddima.

3. "Risolat al-imon" (Imon risolasi) [320 h./935 m.] yildan so'ng;
4. "Risola fi ar-rodd ala ahl as-sag'ri bi-bob al-Abvob" (zalolat ostonasidagi bid'atlariga raddiya) [320 h./935 m.] yildan so'ng;
5. "Al-umad fi ar-ru'ya" (Allohni ko'rish masalasidagi asoslar) [320 h./935 m.] yildan so'ng;

Bu tartib, Imom Ash'ariyning hayotiy yo'lidan kelib chiqib, mantiqan asoslangan bo'lib, "Al-Ibona" asari salaf aqidasi ifodalovchi va Imom Ash'ariyning qarashlari asosi sifatida bayon qilgan ilk asar hisoblanadi. So'ngra "al-luma" asari "al-ibon" ga tayangan holda raddiyalar berishga qaratilgan bo'lsa, "maqolot" kitobida muxolif fiqarlar va ularning iddaolari batafsil bayon qiladi. Shuningdek, "at-tafsir" kitobida mo'taziliylarning tafsirdaga botil qarashlarini sindirish maqsadida yozilgan bo'lsa, "al-umad" asari Alloh taoloni ko'rish masalalarini xususida bo'lgan⁸. Demak, bulardan ko'rinadiki, "Maqolotul islomiyyin" asari hijriy 292–320yillar oralig'ida yozilgan, deb hisoblanadi.

Shuningdek, kitobning yozilishi Imom Ash'ariy hayotining birinchi bosqichi, ya'ni, mu'tazililikni 40 yoshga kirganida tark etganidan keyin sodir bo'lgan⁹. Bundan, 300-yilda mo'tazililikni tark etgan bo'sa, asarning yozilish yillari hijriy 300-320 yillar oralig'ida yozilgan hisoblanadi.

Asarning yozilishi sabablari: Imom Ash'ariy o'z davrida yozilgan fiqarlar va qarashlar haqidagi kitoblarni ko'zdan kechirganida, ularni fiqarlar qarashlarini o'rganish uchun yetarli emas deb topdi. U bu asarlarda quyidagi xatolarni aniqladi. Ba'zi mualliflar qarashlarni noto'g'ri keltirgan yoki kimga tegishliligi malum emas, ba'zilar esa fiqarlarning fikrlarini to'liq yoritmagan, yoki qasddan yolg'on axborot tarqatganlar, ba'zilar esa raqiblarini yomon ko'rsatish uchun ularning gaplariga o'zidan qo'shimcha qilganlar.

Shunday xatolar ularning qarashlarini to'g'ri bayon qilishga to'sqinlik qiladi deb hisoblab, Imom Ash'ariy o'zi bu sohada yozishga qaror qiladi va shunday deydi:

"Kimki dinlarni tushunmoqchi va ularni farqlamoqchi bo'lsa, u avvalo mazhablar va turli qarashlarni bilmog'i lozim. Men esa odamlarning fiqarlar haqida yozganlarini ko'rib chiqdim, ular orasida: aytayotgan narsasida xatoga yo'l qo'yanlar, raqibining fikrini noto'g'ri tushunganlar, atayin yolg'on uydirib, raqibini yomon ko'rsatmoqchi bo'lganlar, yoki xalq orasida mashhur bo'lgan, ammo noto'g'ri rivoyatlarni yozganlar bor edi. Yana ba'zilar esa raqibining fikriga o'zicha dalil ilova qilib, so'ng bu fikrni unga nisbat berishga urinadilar. Bu yo'l xolis olimlarning yo'li ham emas, hushyor va farosatli kishilarning yo'li ham emas. Shu holatlarni ko'rib, aqiydaviy qarashlar masalasini aniq, qisqa va to'g'ri bayon qilishga qaror qildim. Men bu ishga Allohning yordami va qudrati bilan kirishmoqdaman"¹⁰.

Demak, Imom Ash'ariyning bu kitobni yozishdagi asosiy sababi — ilmiy halollik, adolatli yondashuv va fikrlarni egalariga to'g'ri nisbat berishdagi ehtiyotkorlik bo'lgan. Shu sababli u fiqarlar va qarashlar haqida to'g'ri va ishonchli manba yozishga kirishgan.

⁸ Abul Hasan Ash'ariy. Al-ibona an usul ad-diyona. // Tahqiq: Dr. Favriya Husayn Mahmud. – Qohira: Dor al-ansor, birinchi nashr, 1977. – B 91.

⁹ Tojiddin Subkiy. Tabaqot ash-shofi'iyya al-kubro. – J: 3. – Bayrut: Hajr li at-tiba'ati va an-nashr va at-tavzi', ikkinchi nashr, 1413 h. – B. 347.

¹⁰ Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990.– B. 33.

Imom Ash'ariyning "islom ummati 73 firqaga bo'linish" hadisiga munosabati. Imom Ash'ariy o'z kitobida "islom ummati 73 firqaga bo'linish"ni tilga olmagan. Bu holat ikki sabab bilan izohlanadi:

Birinchi sabab: Imom Ash'ariy kitobining boshida Islomiy firqalar orasida yuzaga kelgan ixtiloflar ularni Islom doirasidan chiqarib yubormasligini aniq bayon qilib, shunday deydi:

"Odamlar Payg'ambarlaridan keyin ko'plab masalalarda ixtilof qilishdi, ba'zilar boshqalarni yo'ldan ozgan deb bildi, ba'zilar esa bir-biridan yuz o'girdi. Shunday qilib ular har xil firqalarga va guruhlarga bo'linib ketishdi. Ammo shunga qaramay, barchasini Islom birlashtiradi va o'z doirasida qamrab oladi"¹¹.

Ikkinchi sabab: Shuningdek u, firqalar sonini hadisda keltirilgan raqam – 73 soni bilan chegaralab qo'ymagan. Bu esa Imom Ash'ariyning bu sonni qat'iy mezon deb hisoblamaganini ko'rsatadi.

Imom Ash'ariyning kitobni tartibga solishdagi uslubi. Imom Ash'ariy asarini firqalaninsh tarixi muqaddimasi bilan boshlaydi. Unda Payg'ambar (s.a.v) vafotidan keyin yuzaga kelgan ixtiloflar haqida so'z yuritadi, bu ixtiloflarning xususiyatlarini bayon qiladi hamda sahobalar bu ixtiloflarga qanday munosabat bildirganini tushuntiradi. So'ngra Ali va Usmon (r.a) davrida sodir bo'lgan fitnalar atrofidagi ixtiloflarni zikr qiladi va bu ixtiloflar islomdagi firqalar shakllanishining boshlanishi bo'lganini keltiradi.

Imom Ash'ariyning firqalarni bir-biridan ajratishdagi taqsimoti.

Imom Ash'ariy maqolalar kitoblaridagi an'anaviy uslubga amal qilib avvalo islomiy firqalarning asosiy toifalarini sanab o'tadi va shunday deydi:

"Musulmonlar o'n toifaga bo'lindi: shialar, xavorijlar, murjiya, mo'tazila, jahmiya, dororiya, husayniya, bakriya, al-omma, hadisshilar va kullobiylar (Abdulloh ibn Kullobning safdoshlari)."¹²

Shu bilan birga, u firqalar soni o'n ta deb e'lon qilgan bo'lsa-da, aslida o'n bitta nom keltirgan. Kitobni tahqiq qilganlar ham bu tafovutga e'tibor qaratgan. Masalan: Helmut Ritter deydi:

"Bu umumiy sanab o'tishdir. Bu yerdagi narsa kitobdagi tafsilotlarga mos kelmaydi"¹³. Shayx Muhiyiddin Abdulhamid shunday deydi:

"Kitobning aslida manashu holda keltirilgan. Agar siz u yerdagi nomlarni sanab chiqsangiz, ularning soni o'n bitta bo'lganini ko'rasiz."¹⁴

Lekin bu yerda ko'rinib turibdiki, Imom Ash'ariy "omma" (العمامة) so'zini aniq bir firqaga emas, balki umumiy musulmon ommasiga nisbatan ishlatgan. Ya'ni bu so'z "ahli sunna val jamoa" ni emas, umum lafzini anglatadi.

Bu son va tafsilot o'rtasidagi tafovutlar boshqa joylarida ham takrorlanadi. Masalan: Rofiziylar Qur'on haqida: unga biror narsa qo'shilganmi yoki kamaytirilganmi? bu borada

¹¹ Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990. – B. 34.

¹² Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990. – B. 65.

¹³ Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. //Tahqiq: Helmut Ritter. – Vaysbaden: Frater Steiner, uchinchi nashr, 1980. – B. 5.

¹⁴ Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990. – B. 65.

uch firqa borligini aytadi, lekin faqat birinchi va uchinchi firqani keltiradi, ikkinchisini esa keltirmaydi.¹⁵

Rofiziylar qarashicha: nazar va qiyos (aql bilan dalil keltirish) haqida sakkiz firqa mavjud deyilgan, ammo ikkinchi firqaning fikri aynan uchinchi firqaning fikriga batamom o'xshash qilib keltirilgan.¹⁶

– Rofiziylarning inson haqidagi tushunchalari borasida: “Inson nima?” degan savolda to'rtta firqa borligi aytiladi, lekin u ikkita rofiziy firqani, qolgan ikkitasini esa mo'taziladanligini keltiradi.

– Murjiya firqasining kufri qanday aniqlashi haqida so'z yuritganda: ularni yetti firqaligini aytib, faqatgina oltitasini keltiradi.¹⁷

Har bir firqa haqida so'z boshlaganida, Imom Ash'ariy avvalo uning ichidagi bo'linishlarni, ya'ni har bir firqaning ichida yuzaga kelgan guruh va toifalarni aniq sanab o'tadi. U bu bo'linishlarni aniqlik va diqqat bilan qayd etadi, bu esa asarni islomiy firqalar, ularning qarashlari va ichki bo'linishlarini juda aniq aks ettiruvchi manbaga aylantiradi.

Imom Ash'ariy firqalarning qarashlarini batafsil bayon qilarkan eng avval shialardan boshlagan, sababi ular islomiy firqalarning eng qadimiysi hisoblanadi. Qolaversa shialik eng ko'p ichki bo'linishlarga uchragan yo'nalish bo'lib, ularning soni oltmishdan ortadi.

Shuningdek, Imom Ash'ariy firqalar nomiga unchalik ahamiyat bermagan. Ko'pincha u biror fikrni aytib o'tar, lekin bu fikrni aynan kim aytgani yoki qaysi firqaga tegishli ekanini ko'rsatmasdi.

Imom Ash'ariy biron toifa qarashlarini bayon etishda hech bir firqaga og'ishmasdan yoki boshqa firqani yomonlamasdan xolis yondashgan. Uning shaxsiy e'tiqodi va uslubi, bu qarashlarni qanday taqdim etishiga ta'sir qilmagan.

Shuningdek, ushbu asarda firqalarga ajratilgan sahifalar sonining nomutanosibligini kuzatish mumkin. Ayrim hollarda batafsilroq yoritilgan bo'las, ba'zida esa qisqacha tilga olgan. Quyida har bir firqaga ajratilgan sahifalar soni ko'rsatilgan:

1. Shia 102 bet;
2. Xavorij 46;
3. Murji'a 22;
4. Mu'tazila 104;
5. Jahmiya 1;
6. Dorroriyya 2;
7. Husayniya 3;
1. Bakriyya 2;
2. Ahl al-Hadis 6;
3. Kullobiyya 2.

¹⁵ Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990. – B. 119-120.

¹⁶ Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990. – B. 132.

¹⁷ Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolot al-islomiyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990. – B. 65.

Bu tafovutning sababi, shialik va mu'taziliylik eng keng tarqalgan firqalar bo'lgani uchun Imom Ash'ariy ularning qarashlarini va ichki tafovutlarini batafsil yoritishga harakat qilgan.

Aksincha, boshqa firqalarda bunday tafovutlar va bo'linishlar kamligi uchun, ularning faqat asosiy fikrlari yoki o'ziga xos jihatlari keltirilgan xolos.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Dr. Abduttavvab Muhammad Muhammad Ahmad Usmon. Manhaj al-imom Abu al-Hasan al-Ash'ariy fi dirosat al-Farq dirosat tahliyyiyya li-kitab " Maqolat al-islamiyya va ixtilaf al-musollin. – J:9. – Qohira : Majalla banat az-Zaqaziq li-kullliya ad-diroso al-islamiyya va al-arabiyya, 2019.
2. Shahrisoniy, Muhammad ibn Abdulkarim ibn Abu Bakr Ahmad. Al-Milal va an-nihal. // Tahqiq: Muhammad Sayyid Kayloniy. – J:1. – Bayrut: Dor al-ma'rifa, 1404 h. – B.14.
3. Ibn Asokir, Abul Qosim Ali ibn Hasan. Tabyin al-kazib al-muftariy. – Bayrut: Dor al-kitab al-arobiy, 1404 h.
4. Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolat al-islomiyyin va ixtilaf al-musollin. //Tahqiq: Hellmut Ritter. – Vaysbaden: Frater Steiner, uchinchi nashr, 1980.
5. Abul Hasan Ash'ariy. Al-ibona an usul ad-diyona. // Tahqiq: Dr. Favriya Husayn Mahmud. – Qohira: Dor al-ansor, birinchi nashr, 1977. – B 91.
6. Tojiddin Subkiy. Tabaqot ash-shofi'iyya al-kubro. – J: 3. – Bayrut: Hajr li at-tiba'ati va an-nashr va at-tavzi', ikkinchi nashr, 1413 h.
7. Ash'ariy, Abul Hasan. Maqolat al-islomiyyin va ixtilaf al-musollin. tahqiq: Muhammad Muhiyiddin Abdulhamid. – J: 1. – Bayrut: Al-maktabatul asriyya, 1990.

INNOVATIVE
ACADEMY